



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/6



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 6-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 6 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA JINOYAT QONUNCHILIGIDAGI MEXANIZMLARI.

Boboyorov Jasur Marat o'g'li

O'zbekiston respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kasbiy tayyorgarlik fakulteti maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat va jinoyatchilikning oldini olish tushunchalarining nazariy-huquqiy mazmuni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi huquqiy asoslar, profilaktika subyektlarining faoliyati hamda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan profilaktik mexanizmlar tahlil qilingan. Mavzu doirasida Z.S. Zaripov, Q.Mirzajonov, V.N. Kudryavsev, G.M.Minkovskiy va A.B.Saxarovlarning jinoyatchilikning oldini olishga oid ilmiy qarashlari hamda nazariy yondashuvlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, jinoyatchilikni olini olish, konsepsiya, jinyatchilikka qarshi kurashish,

Bugungi kunda jinoyatchilik dunyoning barcha davlatlari qatori O'zbekiston Respublikasida ham jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Jinoyatchilikning oldini olish, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olishning muhim tamoyillaridan biri aholi bilan manzilli ishlash va huquqbuzarliklarning sabab hamda shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy etilgan "mahalla yettiligi" tizimi profilaktika faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tizim orqali profilaktika inspektorlari huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlab, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini bartaraf etish choralari ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa jinoyatchilikning oldini olishda individual yondashuv, ijtimoiy hamkorlik va erta profilaktika tamoyillarining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida profilaktika alohida o'rin tutadi. Chunki jinoyat sodir etilgandan keyin javobgarlik choralari qo'llashdan ko'ra, uni keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish ancha samarali hisoblanadi. Shu bois kriminologiya fanida jinoyatchilikning oldini olish masalalari doimo dolzarb ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan.

Mazkur masalalar yuzasidan Z.S.Zaripov, Q.Mirzajonov, V.N.Kudryavsev, G.M.Minkovskiy, A.B.Saxarov va boshqa olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan. Ularning tadqiqotlarida jinoyatchilikning oldini olishning mazmun-mohiyati, tamoyillari, shakllari hamda subyektlari atroflicha yoritilgan.



Insoniyat hayotining barcha davrlarida jinoyatchilikka “yo‘l qo‘ymaslikka” doimo harakat qilingan, ammo u barqaror qolavergan, hozirgi kunda u hatto “takomillashmoqda”. U ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq holda o‘zgarmoqda xolos, ammo mohiyatini saqlab qolmoqda. Jinoyatchilik jamiyat qanaqa bo‘lmasin, undagi mavjud ziddiyatlarning hosilasidir. Ijtimoiy ziddiyatlar esa har qanday ijtimoiy tabiatga ega faoliyat, binobarin, jinoyatchilikning ham manbaidir. Jinoyatchilik yoki jinoyatlarning batamom oldini olish mumkinmi, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Jamiyat nimaning oldini oladiyu, nimaning oldini ololmaydi Jinoyatchilikka qarshi kurashishning o‘zi behuda emasmi?

“Oldini olish” tushunchasining tildagi ma‘nosi nimagadir yo‘l qo‘ymaslikni bildiradi. “Kurashmoq biror kimsa yoki narsaga aktiv qarshilik ko‘rsatmoq, uni yengish yoki yo‘q qilish uchun chora ko‘rmoq, harakat qilmoq, tirishmoq, olishmoq” kabi ma‘nolarni anglatadi. Jinoyatchilikni esa butunlay yo‘q qilib bo‘lmaydi. U faqat jamiyat bilan birga barham topishi mumkin. Shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib ayrim mualliflar uni batamom tugatish haqida emas, balki jamiyat va jinoyatchilikning murosaga kelishi haqidagi masalani qo‘ymoqdalar, ya‘ni jinoyatchilikning oldini olish deganda, uni muayyan darajada, doirada va shakllarda saqlab turishni tushunish kerakligini aytmoqdalar.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo mamlakatlari aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilishi haqida, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov. – Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida aholimizning yarmidan ko‘pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doimo e‘tiborimiz markazida ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tdi. Bugun O‘zbekiston ulkan yangilanishlarni boshdan kechirmoqda va bu jarayonda zamonaviy bilim va dunyoqarash bilan hayotga kirib kelayotgan yosh avlod maydonga chiqmoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ezgu tashabbusi va salohiyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va





ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog‘liq aniq vazifalar belgilangan. Barcha sohalar kabi diniy sohada bo‘layotgan katta o‘zgarishlar, ulkan islohotlar jahon miqyosida e’tirof etilayotgan ijobiy natijalarning asosiy maqsadi “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ish olib borilmoqda. Darhaqiqat, bugun dunyo ko‘zda halqalangan yoshdek qalqib turgan bir paytda yoshlarni chalg‘ituvchi, ularni o‘z domiga tortishni istovchi turli kuchlar ko‘payib boryapti. Eng achinarlisi, dunyoning qaysi burchagida biror jinoyat sodir etilsa, albatta, bu jarayonda yoshlarning “qo‘lidan” foydalanilyapti. Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o‘ta dolzarb masalasi bo‘lib kelgani ayni haqiqat. Muarrixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog‘ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: “Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!”

Muarrix bu yozuvni o‘qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo‘lgan? Demak, yoshlar masalasi hamisha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan ekan-da. Islom ta’limotida yoshlar tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Islomning dastlabki o‘n uch yilida, ya’ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yakkayu yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu borada o‘z yonlariga 8–16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko‘plab yoshlarni olib, avvalo, ularning ta’lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berganlar. Hadisi sharifda: “Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”, deyilgan.

Bolalar va yoshlarni salbiy hodisalar va huquqbuzarliklardan samarali profilaktika qilishda o‘smirlar va bolalar hayoti uchun maxsus axborot va madaniy makonni shakllantirish, yoshlar siyosati mutaxassislari va jamoatchilik uchun axborot-tahliliy materiallar, amaliy tavsiyalar (plakatlar, kalendarlar, bukletlar) nashr etish, yoshlar auditoriyasiga jamiyat tomonidan rag‘batlantirilayotgan xulq-atvor shakllari va yosh shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot uzatish, yoshlar o‘zlarining yoshga bog‘liq motivlari va ehtiyojlarini (muloqot, o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘zini-o‘zi anglash zarurati) amalga oshirishi mumkin bo‘lgan dasturlarni ishlab chiqish, o‘smirlar va bolalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari, qiyin hayotiy vaziyatlarda yordam olish usullari to‘g‘risidagi barqaror jamoatchilik fikri shakllantirish zarur.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev poytaxt tumanlariga bevosita tashriflarida ham bu masalani shaxsan o‘rganib, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish bo‘yicha muhim vazifalarni, yo‘nalishlarni hamda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlarni belgilab bermoqdalar.

Shunday bo‘lsada, yurtimizda, ayniqsa Toshkent shahrida ayrim jinoyatchilik holatlari uchrab turibdi. Har qanday jinoyat jazosiz qolmasligi o‘z



vaqtda zarur chora-tadbirlar qo'llanishi kerak. Tabiiyki, shu o'rinda savol tug'iladi.

Jinoyat o'zi nima?

Jinoyat — jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analariga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.

Qonunchilikda "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yana-da takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ishlab chiqildi. Mazkur qonun zo'ravonlik holatlariga to'siq qo'yishga, ularni oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yurtimizda jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha Yaponiya tajribasini o'rganish borasida xalqaro hamkorlik ishlari amalga oshirildi. Xususan tomonlar sun'iy intellektdan foydalanish orqali jinoiy odil sudlovning kelajagi, huquqni muhofaza qilish tizimida jinoyatchilikning oldini olishning texnik metodologiyasi, jinoyatchilikning oldini olish tizimi, rasmiy statistik va haqiqiy ma'lumotlar asosida jinoyatchilik holatini baholash masalalari va boshqa mavzularda tajriba almashdilar. Amalga oshirilayotgan loyihalar, ishlab chiqarilayotgan qonun- qoidalar barchasi xalq manfaatlarini uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari hukumatimizda qashshoqlik, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi jinoyatlarning asosiy sabablarini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy jihati sifatida doimiy ravishda profilaktika ishlari ham olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida jinoiy xatti-harakatlar ehtimolini kamaytirish va barcha uchun xavfsiz muhit yaratish strategiyalarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu boradagi sa'y harakatlar, davlatimiz organlari xodimlarining jonkuyarligi, jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shayotgan fidoyi xodimlar xizmati alohida e'tibor va e'tirofga sazovor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jinoyatlar haqidagi masala ham xuddi shu tarzda qo'yilishi mumkin. Insoniyat mavjud ekan, jinoyatlar sodir etilaveradi, chunki har qanday jinoyatning sababchisi, avvalo, insonning o'zi. Jinoyat, har qanday insoniy xatti-harakat singari, shaxs xislatlari va obyektiv vaziyat o'zaro ta'sirining natijasidir. Jinoiy harakat yuz berish-bermasligini inobatga olish asosida, jinoyatlarning oldini olish imkoniyati darajasining ortib (yoki kamayib) borishiga qarab, uning sodir etilishi ehtimolligi chegarasining pasayishi (yoki ko'tarilishi) haqidagina so'z yuritish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezident ta'kidlaganidek, huquqni muhofaza qiluvchi, sud organlarining bosh vazifasi samarali profilaktik ishlarni olib borishdan iborat.

Jinoyatchilik va jinoyatlarning oldini olishni ana shu nuqtai nazardan qarab chiqish zarur. Bunda jinoyatchilik asosan statistik qonuniyatlarga bo'ysunishini inobatga olish zarur. Bu konuniyatlarga faqat jinoyatchilik sabablarini aniqlash

orkaligina bir kadar sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin. Ta'kidlanganidek, uning oldini olish, umuman mumkin emas, ammo sabablariga ta'sir ko'rsatish mumkin va zarur. Binobarin, oldini olish aslida jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi salbiy hodisalar yoki jarayonlar yuzaga kelishining oldini olishni bildiradi. Shuning uchun ham jinoyatchilikning oldini olishning mintaqaviy tizimiga xos real imkoniyatlar va xususiyatlarni to'g'ri baholash lozim.

Bunday baholash mintaqaviy (mahalliy) jinoyatchilikning yuqori darajadagi, masalan, mamlakat miqyosidagi holatidan kelib chiqishini tushunishga asoslanadi. Jinoyatchilikning turli darajalari insonlar ma'muriy-hududiy jamoalarining rivojlanish darajasiga bog'lik. Shu sababli mintaqaviy jinoyatchilik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar «yuqori darajadagi» jinoyatchilik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarga ham ko'p jihatdan bog'liq, ammo bunda mahalliy omillar ham ahamiyatga ega, albatta. Mintaqaviy darajadagi jinoyatchilikning "yuzini" ko'rsatuvchi bu mahalliy omillarni aniqlash juda muhim. Masalan, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish davlat ahamiyatidagi vazifadir. Biroq mintaqalarda yoshlar orasidagi jinoyatlar o'sishining asosiy qismi 14-17 yoshli o'smirlar, yoxud 25-29 yoshlardagi yigit-qizlarga, yoxud umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarda yoki oliy ta'lim muassasalarining o'quvchilari hissasiga to'g'ri keladi. Demak, mintaqalarda jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining yo'nalishlari ham darajasi, subyekti, shakllari, usullari va boshqa asoslari bo'yicha o'zaro farq qiladi. Bundan tashqari, mahalliy doirada jinoyatchilikni ijtimoiy muhitning o'zi amal qilishi natijasida yuzaga keladigan jinoyatchilik (bunda kriminologik sharoit nazarda tutilishi lozim) hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ta'sir ko'rsatish obyekti bo'lgan jinoyatchilik (bunda operativ sharoit nazarda tutilishi kerak) turlariga shartli ravishda bo'lish amaliy ahamiyatga egadir.

Birinchi holda jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy sohani o'zgartirish, undagi kriminologik sharoitni murakkablashtirishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish (yumshatish)dan, ikkinchi holda esa - huquqni muhofaza qiluvchi tizimning operativ sharoitga ta'sir ko'rsatuvchi ziddiyatlarini yo'q qilishdan iborat bo'ladi. Operativ holat doimo kriminologik vaziyatdan kelib chiqadi. Shu bois adliya organlarining jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatishi cheklangan doirada bo'ladi. Shunga qaramay, jinoyatchilikni bu tarzda shartli ravishda bo'lish huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlari jinoyatchilikning oldini olishda amalga oshiradigan faoliyatning imkoniyatlarini to'g'ri baholashga yordam beradi. Mintaqaviy jinoyatchilikning holati huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tegishli darajasini belgilab beradi. Bunda ayni bir darajadagi ta'sir obyekti va subyektining muvofiqligini aniqlash nihoyatda muhim.

Bizningcha, mintaqadagi jinoyatchilikning oldini olish ishlari avval kriminologik vaziyatni baholashdan, xususan, aholining hayot darajasini o'rganishdan boshlanishi, keyin esa jinoyatchilikni tadqiq etishga o'tilishi kerak. Insonlarning hayot darajasi barcha ijtimoiy ziddiyatlarni o'zida aks ettiradi. Bu



borada diqqat aynan ana shu munosabatlarga qaratilishi kerak. Hayotning darajasi va jinoyatchilik o'rtasidagi aloqaga nafaqat mamlakatimiz kriminologlari, balki ajnabiy olimlar ham e'tibor qaratganlar. Hayot darajasining ko'rsatkichlari odamlar ijtimoiy hayotining o'ziga xos indikatorlari vazifasini bajaradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad; asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi; uy-joy, sanoat mollari, jumladan uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasi; tibbiy xizmat ko'rsatishning ahvoli; aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish va uning madaniy ehtiyojlari darajasi. Bu ro'yxat hali tugamaydi. U to'ldirilishi va o'zgartirilishi mumkin, ammo bu hudud aholisi ehtiyojlarining qanoatlantirish darajasini aks ettirishi kerak. Hududdagi kriminologik vaziyatni baholashda boshqa (demografik, psixologik, jug'rofiy, tarixiy kabi) jihatlar ham alohida ahamiyatga ega.

Kriminologik vaziyatda jinoyatchilik rivojining asosiy tamoyillarini aniqlab olish muhim. Bunda jinoyatchilikning jamiyat uchun xavflilik, hududlar va jamiyatning guruhlar bo'yicha tarqalganlik darajasi, motivlarining yo'nalishlari, barqarorligi va uyushganligi kabi ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Ijtimoiy muhit muayyan ko'rsatkichlarining (masalan, aholi hayot darajasining) o'zgarishi jinoyatchilikning (chunonchi, qasddan sodir etiladigan jinoyatchilikning) ko'rsatkichlarida muayyan o'zgarishlar keltirib chiqarishi aniqlangan. Bu esa ijtimoiy muhit va jinoyatchilikning kriminologik sharoitdagi tegishli (kulay sharoitdan tortib halokatli vaziyatgacha bo'lgan) holatini ifodalovchi kriminologik ko'rsatkichlarning minimal ro'yxatini aniqlashning zaruratini tug'diradi.

Kriminologik vaziyatni bilish operativ vaziyatni, ya'ni jinoyatchilikning odamlarning kundalik hayotiga, jamiyatdagi barcha institutlarning normal faoliyat ko'rsatishiga, boshqa tomondan esa, bu institutlar, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi tizimning ta'sirini to'g'ri baholashga imkoniyat yaratadi. Foydalangan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023.
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.– T., 2021. – Lex.uz.
Z. Zaripov. Q.Mirzajanov. Yakka tartibdagi huquqbuzarlik profilaktikasi muammolari 2019 y.
Po'latov. Yu.S,Z.Zaripov. Huquqbuzarliklarni oldini olish chora tadbirlarini takomillashtirish 2019.

